

**MADANIYAT VA IJTIMOIIY HAYOTDA AYOL MATONATINING
MADANIY IFODALARI**

*Maktabgacha ta'lim fakulteti
Andijon davlat pedagogika instituti
Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchilari
Jabborova Sayyoraxon Muxammadqobilovna*

*Maktabgacha ta'lim fakulteti 204-guruh talabalari
Oltinboyeva Sevinch
Ahmadjonova Begoyim,
Sadikova Kamola,
Komilova Roziya*

Anotatsiya. *Ushbu maqolada madaniyat va ma'naviyat haqidagi ijtimoiy munosabatlar ayolning matonati hamda jamiyatda madaniy aloqalarning ildizlari haqida xususan quyidagilar haqida soʻz boradi. Madaniyat-jamiyat, inson ijodiy kuch va qobilyatlari tarixiy taraqqiyotining muayyan darajasi. Kishilar hayoti va faoliyatining turli koʻrinishlarida, shuningdek, ular yaratadigan moddiy va ma'naviy boyliklarda ifodalaydi. Yevropada „Madaniyat“ deyilganda dastlab insonning tabiatga koʻrsatadigan maqsadga muvofiq ta'siri, shuningdek, insonga ta'limtarbiya berish tushunilgan. Madaniyat — umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o'zigina yaratgan sof madaniyat bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millat o'zi yaratgan bo'lsada, unda ja-hon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta. Madaniyat hech qachon hodisa bo'la olmaydi. U barchaga baravar xizmat qiladi.*

Kalit soʻzlar: *Madaniyat, jamiyat, inson, kuch, qobilyat, ayol, madaniy, davlat, xalq, mehnat, hurmat, e'zozlash, badaviylik, madaniy millat, sof madaniyat, marifatchilik, ma'naviyat, moddiy madaniyat, sotsiologiya, mehribon, axloq.*

Annotation. Culture is a certain level of historical development of society, human creative power and abilities. It is expressed in various forms of people's life and activities, as well as in the material and spiritual wealth they create. In Europe, the word "Culture" originally meant the purposeful influence of man on nature, as well as education. Culture is a universal phenomenon, belonging to only one people, and a pure culture created by only one people cannot and cannot be. Although the main part of each national culture was created by this nation itself, it certainly has a share and influence of the universal culture created by the nations of the world. Culture can never be a phenomenon. It serves everyone equally. This article is about them.

Key words. Culture, society, human, power, ability, woman, cultural, state, people, work, respect, respect, Bedouinism, cultural nation, pure culture, enlightenment, spirituality, material culture, sociology, kind, morality

Аннотация. Культура – это определенный уровень исторического развития общества, творческих сил и способностей человека. Оно выражается в различных формах жизни и деятельности людей, а также в создаваемых ими материальных и духовных богатствах. В Европе слово «Культура» первоначально означало целенаправленное воздействие человека на природу, а также образование. Культура — явление универсальное, принадлежащее только одному народу, а чистая культура, созданная только одним народом, не может и не может существовать. Хотя основная часть каждой национальной культуры создана самим этим народом, она, безусловно, имеет долю и влияние общечеловеческой культуры, созданной народами мира. Культура никогда не может быть явлением. Он служит всем одинаково. Эта статья о них.

Ключевые слова: Культура, общество, человек, сила, способность, женщина, культурное, государство, народ, труд, уважение, почитание,

бедуинизм, культурная нация, чистая культура, просвещение, духовность, материальная культура, социология, род, мораль.

Kirish. Madaniyat – arabcha Madina (shahar) soʻzidan kelib chiqqan. Arablar kishilar hayotini ikki turga: birini badaviy yoki sahroiyl turmush, ikkinchisini madaniy turmush deb ataganlar.¹ Badaviylik — koʻchmanchi holda dashtu sahrolarda yashovchi xalqlarga, madaniylik — shaharda oʻtroq holda yashab, oʻziga xos turmush tarziga ega boʻlgan xalqlarga nisbatan ishlatilgan. Oʻrta asr madaniyatining buyuk namoyandalari Abu Ali ibn Sino, Beruniy va boshqa shahar turmush tarzini jamoaning yetuklik shakli sifatida talqin qilganlar. Masalan, Farobiy fikricha, har bir inson oʻz tabiatiga koʻra, „oliy darajadagi yetuklikka erishish uchun intiladi“, bunday yetuklikka faqat shahar jamoasi orqaligina erishiladi.² Uning taʼkidlashicha, „madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday boʻladiki, bu mamlakatda har bir odam kasb-xunarda ozod, hamma babbaravardir, kishilar oʻrtasida farq boʻlmaydi, har kim oʻzi istagan yoki tanlagan kasb-hunar bilan shugʻullanadi. Odamlar chin maʼnosi bilan ozod yashaydilar“. Alisher Navoiy yetuk axloq, maʼrifatli va adolatli jamiyat, jamoa masalasini qayd etish bilan birga, maʼnaviy yuksaklikka erishishning asosiy mezoni deb insonparvarlik gʻoyalariga muvofiqlikni tushundi. Yevropada „Madaniyat“ deyilganda dastlab insonning tabiatga koʻrsatadigan maqsadga muvofiq taʼsiri, shuningdek, insonga taʼlim tarbiya berish tushunilgan. Madaniyat faqat mavjud norma va urf-odatlariga rioya qilish qobiliyatini rivojlantirishni emas, balki ularga rioya qilish istagini ragʻbatlantirishni ham oʻz ichiga olgan. Madaniyatga bunday ikki yoqlama yondashuv har qanday jamiyatga xos. Rimning soʻnggi davrlarida „Madaniyat“ tushunchasi ijtimoiy hayotning shahar turmush tarzini ifodalovchi mazmunlar bilan ham boyigan va oʻrta asrlarga kelib keng tarqalgan. Bu tushuncha keyinchalik kelib chiqqan sivilizatsiya tushunchasiga yaqin turadi. Yevropada Maʼrifatchilik davrida madaniyat va sivilizatsiyaning „tanqidi“ vujudga keldi. Bunda „madaniy“ millatlarning

¹ Maʼnaviy yuksalish yoʻlida T 1998.

² Farobiy soʻzi.

buzilganligi va axloqiy tubanlashganligiga taraqqiyotning patriarxal bosqichida bo'lgan xalqlar axloqining soddaligi va sofligi qarshi qo'yildi. Madaniyat — umuminsoniy hodisa, faqat bir xalqqa tegishli, faqat bir xalqning o'zigina yaratgan sof madaniyat bo'lmaydi va bo'lishi ham mumkin emas. Har bir milliy madaniyatning asosiy qismini shu millat o'zi yaratgan bo'lsada, unda ja-hon xalqlari yaratgan umuminsoniy madaniyatning ulushi va ta'siri bo'ladi, albatta. Madaniyat hech qachon sinfiy hodisa bo'la olmaydi. U barchaga baravar xizmat qiladi. Masalan: san'at va adabiyot durdonalari, me'morlik obidalari, maqomlar, fan yutuqlari va boshqa barchaga tegishlidir. Madaniyat kishilar faoliyatining faqat moddiy natijalari (mashinalar, texnik inshootlar, san'at asarlari, huquq, axloq normalari va hokazo)ni emas, shu bilan birga, kishilarning mehnat jarayonida voqe bo'ladigan subyektiv kuch-quvvatlari va qobiliyatlari (bilim va ko'nikmalari, ishlab chiqarish va professional malakalari, intellektual, estetik va axloqiy kamoloti, dunyoqarashi, ularning jamoa va jamiyat doirasidagi o'zaro muomalalari)ni ham o'z ichiga oladi. Madaniyatning 2 asosiy turi — moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishga qarab madaniyat moddiy va ma'naviy madaniyatga bo'linadi. Moddiy madaniyat moddiy faoliyatning barcha sohalarini hamda uning natijalari (mehnat qurollari, turar joy, kundalik turmush buyumlari, kiyim-kechak, transport, aloqa vositalari va boshqalar)ni o'z ichiga oladi. Ma'naviy madaniyatga ong, ma'naviyat sohalarini kiradi (bilim, axloq, ta'lim-tarbiya, huquq, falsafa, etika, estetika, fan, san'at, adabiyot, mifologiya, din va boshqalar). Har bir jamiyat o'z madaniyat tipiga ega. Jamiyatlarning almashinishi bilan madaniyat tipi ham o'zgaradi, biroq bu hol madaniyat taraqqiyoti uzilib qolganini, eski madaniyat yo'q bo'lib madaniy meros, o'tmish qadriyatlardan voz kechilganini anglatmaydi. Zotan, har bir yangi jamiyat o'zidan ilgari jamiyatning madaniy yutuqlarini zaruriy ravishda meros qilib oladi va ularni ijtimoiy munosabatlarning yangi tizimiga kiritadi. O'zbekiston mustaqillikka erishgach, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida bo'lganidek, madaniyat sohasida ham tub o'zgarishlar yuz berdi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida jamiyatni yangilash sohasida olib borilayotgan islohotlar bilan bir qatorda madaniyatni yuksaltirishga ham alohida e'tibor berilmoqda.

Xalqimizning ma'naviy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish, ularni asrab-avaylash va rivojlantirish, muqaddas dinimiz, urf-odatlarimizni, tarixiy, ilmiy, madaniy merosimizni tiklash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. „Davlat tili to'g'risida“gi (1989-yil 21 okt.) qonun, „Kadrlar tayyorlash milliy dasturi“ (1997-yil 29-avgust)ning qabul qilinishi, O'zbekiston Badiiy Akademiyasi (1997-yil), O'zbekiston davlat kon-servatoriyasi (2002-yil), O'zbek milliy akademik drama teatri (2002-yil), estrada musiqasini rivojlantirish to'g'risidagi va boshqa bir qancha qaror va farmonlarning qabul qilinishi, bir qancha mutafakkir va allomalarimizning muqaddas nomlari tiklanib, yubileylari xalqaro miqyosda keng nishonlanayotgani davlatimiz tomonidan madaniyatni rivojlantirishga ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning amaliy ifodasidir. Dunyoda davlat va jamiyatning nufuzi, ong-u tafakkuri, madaniy darajasini ko'rsatadigan mezonlar ko'p. Lekin har qaysi millat va xalqning ma'naviy kamolotini uning xotin-qizlarga bo'lgan munosabati, hurmat-ehtiromi bilan o'lchash, baholash va belgilash mumkin. Shu nuqtai nazardan, ayollarni ulug'lab, ardoqlab, boshiga ko'tarib yashaydigan xalq o'zining yuksak madaniyati va olijanob qadriyatlarini amalda namoyon qiladigan millat sifatida hurmatga loyiqdir. Jannat onalarning oyog'i ostidadir” degan hikmatli so'zlar ham bejizga yangramagan. Zero mehribon, muqaddas ona siymosi oldida barchamiz bosh egib, ta'zim qilamiz. Ayol — ana shunday ulug' zot, muqaddas siymo. Shu bois ham O'zbekistonda ayollarning haq-huquqlarini himoya qilish, ularning jamiyat hayotida faol ishtirokini ta'minlash borasida hamma choralar ko'rilgan, sharoitlar yaratilgan. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning turli soha va tarmoqlarda o'z qobiliyat hamda imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun munosib shart-sharoit yaratish, ularning qonuniy manfaatlariga so'zsiz rioya qilinishiga erishish, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shuningdek, oila institutini mustahkamlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmogda.³Darhaqiqat, yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng ayollar uchun nimaiki zarur bo'lsa, barchasini muhayyo qilishga, nozik yelkasidagi og'ir yuklardan xalos etishga, umuman, barcha islohotlarning markazida ayollar va

³ Filasofiya qomusiy lug'at QNazarov
www.tadqiqotlar.uz

bolalar turishi, ularga har tomonlama g'amxo'rlik ko'rsatishni ta'minlashga katta e'tibor qaratildi. Ayniqsa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida keyingi uch yil ichida xotin-qizlarga qaratilayotgan ulkan e'tibor, ko'rsatilayotgan ehtirom va g'amxo'rliklar jamiyatimizda ayollarning mavqeyini yanada yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Madaniyat jamiyatdan tashqari paydo bolmaydi. U jonli tarzda jamiyat bilan bogliqli boladi. Bugungi kunda madaniyatning rivoshlanish bosqichlarini, uning jamiyatda tutgan ornini organuvchi fanlar bor. Bular: sotsial filosofiya, sotsiologiya, etnologiya, etnografiya, madaniy va sotsial antropologiya, madaniyat sotsiologiyasi va filosofiyasi. Bu sotsial fanlarning barchasi empirik ma'lumotlarni to'plam va ularni analiz qilish orqali turli jamiyat va davrlarga tegishli bolgan madaniyatlarni bir-biriga bogliqli ravishda o'rganadi.⁴ Ular orasidagi farqni ham chegarani aniqlash qiyin masalalarning biri bolib hisoblanadi. Shu kunga qadar bu fanlarni o'rganib yurgan olimlar ya'niy shu fanlarning yaratilishiga sababchi bolgan turli maktab va yonalishlarga asoslangan holda ularni bir-biridan ajratib kelmoqda. Madaniyat sotsiologiyasi -inson faoliyatining har turdagi tarkiblik hamda mazmunan tarafidan analiz etib, uning rivoshlanish tendensiyalarini sotsial tizimi hamda sotsial institutlarga bog'liqli ravishda o'rganuvchi fan bolib hisoblanadi. Barcha sotsial fanlar qatori madaniyat sotsiologiyasi fanining ham asosiy muaommosi "inson" hisoblanadi va madaniyat sotsiologiyasi insonning dunyo bilan aktiv munosabatini ham bu munosabatlar uning hayot yolida paydo bolishini organadi. Shuning uchun madaniyat ko'p qirrali jarayon bolib, faqatgina qadriyatlar tizimi orqali uning bor ma'no-mazmunini tushinish mumkin. Madaniyatni organishga sotsiologik yondashuv bilan uning ijtimoiylik tomoni ahamiyatli boladi. Madaniyat sotsiologiyasi vazifalarining biri manfaatlari, ustunliklari va yonalishlarni o'z ichiga qadriyatlarining shakllantirish bosqichlarini sotsiologik organish amalga oshiradi. Madaniyat atamasiga berilgan har xil ta'riflar madaniyatning ko'p qirrali ekanligini bildiradi. Madaniyatga bag'ishlangan adabiyotda ko'rsatishicha, bugungi kunda "madaniyat" atamasiga

⁴ Социология культуры. Л. Г. Юнин, М. Логос. 1998

yuzdan ortiq ta'rif berilgan. O'tgan asrning 60-yillarida g'arb mamlakatlarida sodir bo'lgan "madaniy inqilob" er, xotin va bolalarni oilaviy vazifalar, burch va mas'uliyatdan ozod etib, oilaga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojni yo'qqa chiqardi. Bu hol oilaning yemirilishiga sabab bo'ldi. "Ommaviy madaniyat" azaliy qadriyatlarni kamsitib, hatto ayolning eri va bolalari bo'lishi tabiiy, hayotiy ehtiyoj ekani haqidagi tasavvurlar ustidan ham kulib keldi, ayolni onalik vazifasidan butkul "qutqarish"ga intilayotgan guruhlar paydo bo'ldi. Bugun ushbu guruhlar ko'pgina Yevropa mamlakatlarida hukumatga ta'sir qilish qudratiga ega. Ular dastklari yordamida o'zlarining manfur qilmishlariga qarshi jamiyatlarni demokratiyani bo'g'ish, xotin-qizlar va yoshlarni erkin hayot tarzidan mahrum qilishda ayblashyapti. Bunda o'tgan asrning boshlarida g'arb mamlakatlarida shakllangan va bugungi kunga kelib, ijtimoiy harakatga aylangan feminizmning "xizmat"i katta. Sharq musulmon xalqlarida ayollarni hurmat qilish, ularni nafaqat moddiy-jismoniy, balki ma'naviy himoyalash an'anasi chuqur ildiz otgan. Ularning har biri ona yoki ayollik fitrati amalga oshishini orzu qiladi. Sharqda "Jannat onalar oyog'i ostida" degan hikmat bekorga bot-bot takrorlanmaydi. Uning zamirida jamiyatda ayolning o'rni, qadr-qimmatini o'z aksini topgan. Ba'zan jamiyatimizda ayollarning eri tomonidan zo'rvonlikka uchrayotgani ortiqcha bo'rttiriladi. Ammo g'arbda oila qurmagan, farzandli bo'lish haqida o'ylamagan ayollar yoshi o'tgan sari jamiyatda yolg'izlikka mahkum bo'lishi haqida hech so'z demaydi. Ba'zi sohalarda ayollarga qaraganda erkaklarning o'rni baland, ba'zi masalalarda esa ayollar ustun, ba'zilarida esa ular teng huquqli. Bu jinslarning qaysidiri biron narsada kamsitilganini anglatmaydi. Bu har kim o'z tabiatidan kelib chiqqan holda, o'z o'rnida turib, o'zining ishini qilayotgani demakdir. Aslida ayollarga nisbatan har qanday zo'rvonlik barcha aqlli jamiyatlarda, xususan, islomda qattiq qoralanadi. Ayollarga nisbatan kuch ishlatish tajovuz hisoblanadi.

Xulosa.

Davlatimiz rahbarining 2018-yil 2-fevralda qabul qilingan "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan www.tadqiqotlar.uz

takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni bu borada ulkan o'zgarishlarga poydevor bo'lgan katta voqe'lik bo'ldi. Ayollarga yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlarni sanab adog'iga yetish qiyin⁵ Ammo yana bir jihat borki, u haqda to'xatilib o'tmaslik mumkin emas. Bu — millatimiz kelajagi, naslimiz tozaligining muhim omil bo'lgan salomatlik bilan bog'liqdir. Faqat sog'lom onadan sog'lom farzand tug'iladi, deymiz. Aslida ham to'g'ri gap. Boisi to'rt muchasi sog'lom, aql-zakovatli, ma'rifatli onalargina komil farzandlarni tarbiyalashga qodir bo'ladi. Ana shu haqiqatni chuqur anglagan holda yurtimizda xotin-qizlarning salomatligini mustahkamlash, onalik va bolalikni muhofaza qilish, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk yosh avlodni voyaga yetkazishga qaratilgan, uzoqni o'ylab, puxta ishlab chiqilib, hayotga izchil joriy etilayotgan chora-tadbirlar, tegishli dasturlar o'zining ijobiy samarasini beryapti.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Filasofiya qomusiy lug'at. Q. Nazarov .t.204.
2. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T., 1998; Xayrullayev M. M., Shorahmedov D.A., Madaniyat va meros. T., 1973. Davron Shorahmedov.
3. Социология культуры. Л. Г. Ионин, М Логос. 1998
4. Мировая культура Е. Axmedova, R. Gabidulin T. 2001
- Jabborova, S., Erkinova, I., & Shokirova, Z. (2024). VIRTUAL O'YINLARNING YOSHLAR ONGIGA TA'SIRI. *Ilm-fan va ta'lim*, (6 (21)).
5. Jabborova, S., Mirzadavlatova, U., & Kozimova, G. (2024). TA'LIM VA TARBIYA JARAYONIDA AXBOROTNING O'RNI VA AHAMIYATI. *Ilm-fan va ta'lim*, (6 (21)).
6. Jabborova, S., Ismatillayeva, I., Fozilova, R., & Sultonboyev, A. (2024). TEXNOLOGIK TARAQQIYOTNING ISTIQBOLLARI. *Ilm-fan va ta'lim*, (6 (21)).
7. Jabborova, S., Daminjonova, S., Ismoilova, G., & Mamatqodirova, M. (2024).

⁵ Shavkat Mirziyoyev so'zii.
www.tadqiqotlar.uz

AXBOROTNING INSON HAYOTIGA TA'SIRI. Ilm-fan va ta'lim, (6 (21)).

8.Jabborova, S., Olimjanova, H., & Shodmonova, S. (2024). INTERNETDAN SAMARALI FOYDALANISH-DAVR TALABI. Ilm-fan va ta'lim, (6 (21)).

9.Bahodir o'g'li, V. S. (2024). YURTIMIZDA ARABLAR BOSQINI VA ISLOM DININING KIRIB KELISHI. WORLD OF SCIENCE, 7(10), 40-44.

10.Asadbek, M., & Davronbek, I. (2023). O'ZBEKISTON-2030 STRATEGIYASINING YANGI O'ZBEKISTONNI BARPO ETISHNING KAFOLATI. Ustozlar uchun, 24(1), 204-207.

11.Dilshodbek o'g'li, I. D. (2023). O'ZBEKISTONDA SIYOSIY PARTIYALARNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O'RNI VA AHAMIYATI. Journal of new century innovations, 29(4), 115-120.

12.Dilshodbek o'g'li, I. D. (2023). O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TA'LIM TIZIMIDA XALQARO BAHOLASH DASTURLARI, METODLARI VA TEXNOLOGIYALARINI JORIY QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 21(7), 102-110.

13. Ahmedov, A. T. (2024). KASABA UYUSHMA TASHKILOTINING HUQUQIY ASOSLARI–DEMOKRATIYA VA OSHKORALIK PRINSIPLARINI SHAKLLANISHI. Экономика и социум, (4-1 (119)), 54-59.

14. AHMEDOV, A. (2024). KASABA UYUSHMA TASHKILOTLARINING BOSHQA JAMOAT TASHKILOTLARI BILAN O'ZARO HAMKORLIKLARI. News of the NUUZ, 1(1.9), 60-63.